

Haitov Jahongir Shodmonovich
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi mudiri, t.f.d. (DSc)

Gulchehra Qodirova
Buxoro davlat universiteti
talabasi

XX ASR IKKINCHI YARMIDA SOVET ITTIFOQINING IQTISODIY SIYOSATI VA UNING NATIJALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1957-1991-yillarda Sovet Ittifoqi iqtisodiyoti, iqtisodiy tizimning rivojlanish bosqichlari va inqiroz omillari tahlil qilinadi. 1960-1970-yillarda Sovet iqtisodiyotida og'ir sanoat, energetika va harbiy sanoat kompleksini rivojlantirishga e'tibor qaratilganligi shu bilan birga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari yetarli darajada rivojlanmaganligi, iqtisodiy o'sish sekinlashib, ishlab chiqarish samaradorligi pasayishi va uning ijtimoiy holatga ta'siri ham yoritiladi. 1980-yillarning o'rtalarida amalga oshirilgan "qayta qurish" va ochiqlik siyosati iqtisodiy tizimni isloh qilishga qaratilgan bo'lsada, qisqa muddatda kutilgan natijalarni bermaganligi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kamayib, ta'minot tizimi ishdan chiqdi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kuchaydi. Maqolada markazlashgan boshqaruv tizimi samaradorligining pasayishi, texnologik yangilanishning sustligi va iqtisodiy islohotlarning kechikishi, Sovet Ittifoqining 1991-yilda parchalanishiga olib kelgan siyosiy va iqtisodiy omillar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sovet ittifoqi, turg'unlik davri, qayta qurish, mahalliydashuv, Nikita Xrushchov, Leonid Brejnev

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sovet Ittifoqi iqtisodiy tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, Nikita Xrushchov tashabbusi bilan sanoat boshqaruvini markaziy vazirliklar tizimidan hududiy iqtisodiy kengashlar Sovnarxozlar orqali boshqarishga o'tkazish maqsadida iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. 1957-yil yanvar oyi oxirida N.S.Xrushchovning sanoat va qurilish boshqaruvini takomillashtirish to'g'risidagi eslatmasi muhokama qilish uchun keng doiradagi milliy rahbarlarga tarqatildi. Eslatmaning asosiy mazmuni korxonalarining idoraviy bo'ysinishini bekor qilish va ularni mintaqaviy yurisdiksiyaga o'tkazish taklifi edi. Ushbu tizimga ko'ra mamlakat hududi bir necha iqtisodiy rayonlarga bo'linib, sanoat korxonalari hududiy iqtisodiy kengashlar orqali boshqarilishi ko'zda tutilgan edi. Masalan, Trans-Ural iqtisodiy kengashi doirasida tuzilgan 1957-yil 22-maydagi RSFSR Vazirlar kengashining 421-sonli qarori bilan Kurgan va 479-sonli qarori bilan Tyumen iqtisodiy kengashlari tashkil etiladi [4.22]. Iqtisodiy kengash rejalashtirilgan maqsad va vazifa asosida mintaqadagi aholi turar joylarini gazlashtirish, elektr energiyasi, markazlashtirilgan isitish va suv taminoti tizimlarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Biroq 1957-1959-yillar mobaynida tizimda "mahalliydashuv" (mestnichestvo) muammosi yuzaga keladi, bunda hududlar resurslarni o'zining milliy ehtiyojlaridan ustun qoyadilar. Shunga qaramay, korxonalar xalq xo'jaliklariga bo'ysundirilgan va ayrimlarinigina o'z me'zonlari bo'lgan ya'ni o'z mintaqalarining ehtiyojlari. O'rnatilgan ta'minot aloqalari uzilayotganligi sababli bu haqidagi xabarlar tez orada Moskva shahriga oshkora noroziliklar bilan yetib bordi. 105 ta xalq xo'jaliklari bir-birining ehtiyojlarini tushuna olmadi bunga axborot yetishmovchiligi, mamlakat miqiyosidagi umumiy ma'lumot yoqligi sabab bo'ldi. Ayrim hududiy rahbarlar esa resurslarni birinchi navbatda o'z mintaqalari ehtiyojlariga yo'naltirganligi bu esa markaz bilan ta'minot zanjirining uzilishiga olib keldi. 1957-yildagi Sovnarxoz (Xalq xo'jaligi) islohoti noto'g'ri yo'nalishdagi qadam yoki eng yaxshi holatda yon tomonga bosilgan qadam edi. Bu islohot kamchiliklari ayon bo'lgach, N.S.Xrushchov ma'muriy o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishdi [1. 360].

Markaziy davlat qo'mitasining tuzilishi shu bilan birgalikda tarmoq vazirliklari tugatilib, uning o'rniga ijro hokimiyatiga ega bo'lmagan, lekin texnik siyosat va investitsiyalarni nazorat qiluvchi Davlat qo'mitalari tashkil qilinadi.

Davlat rejasi (Gosplan) ikki qismga ajratildi (1960-1962): biri istiqboli ya'ni uzoq muddatli rejalashtirish bilan ikkinchisi esa joriy ya'ni kundalik iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanadigan bo'ldi.

Sovnarxozlar birlashtirildi: 1963-yil boshida ularning soni 100 tadan 47 taga qisqartirildi. Jumladan, Markaziy Osiyoning to'rtta respublikasi bitta sovnarxozga aylantirildi.

Partiyaning o'zi 1962- yilda sanoat va qishloq xo'jaligi bo'limlariga bo'lindi, partiyaning har bir yarmi o'z yurisdiksiyasi doirasidagi iqtisodiy faoliyatini nazorat qilishga majbur bo'ldi. N.S.Xrushchyov partiya amaldorlarining "mahalliychilik"dagi til birlashtirishidan qo'rqan ko'rinadi bu bo'linish ma'muriy jihatdan hech qanday mantiqiy ma'noga ega emas edi.[2.20]

N.S.Xrushchyov kimyo sanoatiga haddan tashqari ko'p sarmoya kiritganligi va mahsulot ishlab chiqarishni 7 yilda 3 baravarga oshirilishi kabi asossiz rejalar qoyilgan. Sanoat va uy-joy qurilishda yangi mahsulotlar, ya'ni ko'mir o'rniga suyuq yoqilg'ulardan foydalanish va g'isht o'rniga betonni almashtirish kabi "oqilona g'oyalar" asosida, jami 12000 ta g'isht zavodi dan 8000 tasi yopilgan bu esa jiddiy tanqislikka olib kelgan. Muammolarning yana bir sababi xarajatlarning keskin oshib ketishida edi. Endigi navbat kosmik va raketa dasturi, 1961-yil harbiy harajatlarning keskin o'sishi 30% ga yetgan, vaholanki bu sohalardagi yangi ko'nikmalar va maxsus jihozlarga bo'lgan katta ehtiyojni anglatar edi. Bu sabalar iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga olib keldi. Aynan manashu jarayon 1958-yildan keyin sezilarli bo'lgan [3].

Qishloq xo'jaligi sohasi N.S.Xrushchyov boshqaruvi davrida bir qancha xatoliklar sababli kutulgan natijani bermagan. Vaholanki 1959-1965-yillardagi yetti yillik reja asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 70 foizga oshirilishi rejalashtirilgan edi.

Yillar	Jami	Ekinlar	Chorvachilik
1958-yil	100%	100%	100%
1959yil	100.4%	95%	108%
1960-yil	103%	99.4%	107%
1961-yil	106%	101%	112%
1962-yil	107%	101%	115%
1963-yil	99%	92%	108%
1964-yil	113%	119%	106%
1965-yil	114%	107%	123%
1965-yil	170%	-	-

Qishloq xo'jaligidagi muammolar butun iqtisodiy tizimga ko'p qirrali salbiy ta'sir ko'rsatdi. Don va boshqa mahsulotlar xorijdan keltirildi. Oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat rivoji sekinlashdi [1.372]. Turg'unlik davrida qishloq xo'jaligi sektorining roli alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Agrar sektor nafaqat oziq-ovqat ta'minoti, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lgan. Biroq kolxoz va sovxoz tizimiga asoslangan agrar model past samaradorlik bilan ajralib turdi. Qishloq xo'jaligidagi muammolar bir necha yo'nalishda iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, ishlab chiqarish ehtiyojni qondira olmagan sababli don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish zarurati yuzaga keldi. Bu esa tashqi savdo balansiga bosim o'tkazdi. Ikkinchidan, agrar sektorni qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda subsidiyalar ajratildi, bu esa davlat byudjetni oshirdi. Uchinchidan, oziq-ovqat tanqisligi iste'mol bozorida uzilishlarga olib kelib, umumiy iqtisodiy samaradorlikni pasaytirdi. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning "zaif bo'g'ini" emas, balki butun tizimni sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Agrar sektorning past samaradorligi sanoat rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatib, umumiy iqtisodiy o'sishni pasaytirdi.

XX asrning oxirgi choragi jahon tarixida tub burilishlar davri sifatida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 1980–1990-yillar Sovet Ittifoqi uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan murakkab hamda ziddiyatli davr bo'ldi. 1985-yildan boshlab hokimiyat tepasiga kelgan Mixail Gorbachev mamlakatni inqirozdan chiqarish maqsadida keng qamrovli islohotlarni boshladi. "Qayta qurish"(perestroika) va "oshkoralik" (glasnost) siyosati orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish

va jamiyatni erkinlashtirishga urinishlar amalga oshirildi. Biroq bu islohotlar kutilgan natijani bermay, aksincha mavjud muammolarni yanada keskinlashtirdi. Natijada aholining hukumatga bo'lgan ishonchi pasaydi, ijtimoiy noroziliklar kuchaydi. Ommaviy axborot vositalarida korrupsiya, iqtisodiy tanglik va adolatsizliklar ochiq muhokama qilina boshlandi.

Shu bilan birga, ittifoq respublikalarida milliy o'zlikni anglash jarayoni kuchayib bordi. Boltiqbo'yi respublikalari, Kavkaz va Markaziy Osiyoda mustaqillik harakatlari avj oldi. Markaziy hokimiyatning nazorati zaiflashib, siyosiy tizim ichidan yemirila boshlandi.

1991-yilga kelib mamlakat ichki jihatdan chuqur inqiroz holatiga tushib qoldi. Iqtisodiy tizim izdan chiqqan, siyosiy boshqaruv zaiflashgan va jamiyatda ishonchsizlik hukmron edi. Aynan mana shu omillar yig'indisi natijasida Sovet Ittifoqining parchalanishi sodir bo'lib, dunyo tarixida yangi davrni boshlab berdi.

Xulosa qilib aytganda, Sovet Ittifoqi tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosat va islohotlar kutilgan natijani bermadi. Rejalashtirilgan iqtisodiyotning qat'iy markazlashuvi, resurslarning samarasiz taqsimlanishi hamda innovatsiyalarga yetarlicha e'tibor berilmagani iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keldi. Ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga qaratilgan yondashuv sifat va samaradorlikni ikkinchi darajaga tushirib qo'ydi, natijada esa iqtisodiy tizim ichki inqirozga yuz tutdi. Mazkur muammolar nafaqat iqtisodiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham o'z aksini topdi. Aholining turmush darajasi barqaror yaxshilanmadi, iste'mol tovarlari tanqisligi keng tarqaldi, ijtimoiy tengsizlik va norozilik kuchaydi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimidagi ortiqcha byurokratiya, qarorlar qabul qilishdagi sustkashlik va markaziy hokimiyatga haddan tashqari bog'liqlik islohotlarning samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qildi.

Natijada, Sovet Ittifoqining iqtisodiy siyosati tizimli kamchiliklar tufayli o'zini oqlamadi va bu holat umumiy siyosiy hamda ijtimoiy inqirozning chuqurlashuviga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alec Nove. An economic history of the USSR 1917-1991. 470 p.
2. Rober Allen. The rise and decline of the Soviet economy. 23 p.
3. Mark Harrison. The soviet economy, 1917–1991 Its life and afterlife. – P.9.
4. Nuriddin Muxitdinov. Kreml'da o'tgan yillarim. – T.: O'zbekiston, 1995. – 368 b.
5. КПСС XXIII съездининг материаллари. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 256.